KIBERXUJUM: YOSHLARNI KIBERXUJUMDAN HIMOYA QILISH ASOSIDA ULARDA VATANPARLIK VA BAG‘RIKENGLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISH

X.M.Tojiboyeva
Qori Niyoziy nomidagi TMPI direktor o‘rinbosari,
p.f.d(DSc), professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.20002567

Yoshlarda vatan tuyg‘usini tarbiyalash, ajdodlar o‘tmishi, kechinmalari, madaniyati jahon fan va madaniyati sohasida tutgan o‘rni haqida ma’lumot berish muhum ahamiyatga ega. Shaxsni tarbiyalash eng dolzarb ijtimoiy va pedagogik muommo hisoblanadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablari asosida tarbiyalashda ta’lim sub’ektlari o‘rtasidagi uzluksizlikni hamda fan predmetlari o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlash zaruriti mavjud. Inson o‘zi o‘zida ezgulikni yaratish, ma’naviy yuksalish uchun mas’ul, ammo shu bilan birga insonnning yuksalishida ta’limning roli nihoyatda katta ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Inson tarbiyasi masalasi, ularni nuqsonlardan, hayvoniy qusurlardan qutqarish ajdodlarimizning azaliy qayg‘usi bo‘lib kelgan. Shaxs, millat, insoniyat ma’naviyatining holati va darajasi jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta’sir etishi mumkunligi qadim zamonlardan beri ma’lum. Jamiyat hayotidagi barcha yuksalishlar, taraqqiyot imkoniyatlar, komil inson shaxsining shakllanishi muayyan imkoniyatlar bilan bog‘liq.

Har bir xalq va davlatda amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak mamlakatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya jarayoni ham umumbasharish ehtiyojlardan kelib chiqishi lozim. Sababi insoniyat tamadduni taqdiri barcha xalqlar uchun bir xil qimmatlidir. Dunyoda ijobiy xususiyatlaridan ko‘ra ko‘proq milliy tarbiya asoslariga tobora ko‘proq xavf solayotgan globallashuv jarayoni va ommaviy madaniyatning salbiy jihatlari, global muommolar: giyohvandlik; ekstremizm va terrorizm xavfi; turli ekologik muommolar butun insoniyat oldida tarbiya masalasini katta muommolardan biriga aylantirmoqda. Ushbu jarayonlar xavf va tahdidlarga qarshi millatlararo pedagogik birlikni taqozo qilmoqda. Ota-bobolarimiz “Agar kishiga hayotning o‘zi berolmasa ta’lim, unga o‘rgata olmas hech bir muallim” deya juda asosli fikr aytishgan.

Tarbiya mavsumiy, ma’lum bir vaqtga mo‘ljallangan ish emas, balki jamiyat va davlat ahamiyatiga molik kechiktirib bo‘lmas, uzluksiz davom etadigan jarayon va strategik masaladir. Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’sirida amalga oshiriladigan dinamik tizim sifatida qaraladi. Tarbiya jarayoni ta’lim muassasasi pedagogik faoliyatining yadrosidir[4]. Barqaror axloqiy xulq-atvorga ega, qobiliyatli shaxsni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, jamiyatda o‘zini o‘zi moslashtirish, vatanparvarlik, fuqarolik va ma’naviy axloqiy tarbiya, sog‘lom turmush tarzini o‘quvchilarga singdirish tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Maktab o‘quvchilarini kelajakka yo‘naltirish: o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish, ularga o‘ziga xosligini tushunishga, boshqa odamlarning fikrlarini hurmat qilishga o‘rgatish, o‘zini xolis baholash, o‘z qobiliyatlari, malaka larini hisobga olgan holda kelajak uchun real rejalar tuzish, o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini boshqarish tizimini takomillashtirish ishbilarmonlik, axloq va tashabbuskorlikni tarbiyalash, ularning oilalari, o‘qituvchilar bilan o‘zaro aloqalarini faollashtirish lozim.

Fikrimizcha tarbiya jarayoni maxsus ishlab chiqilgan bo‘lishi, ya’ni yoshlar ning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlari bilan uyg‘unlash tirilgan maqsadga muvofiq tizim bo‘lgandagina haqiqiy bo‘ladi. XXI asr kishisi umuminsoniy qadriyatlardan va bugungi kun haqiqatlaridan kelib chiqib, jismonan sog‘lom, ma’naviy axloqiy, intellektual jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan bo‘lishi shu bilan birga dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlarga loqayd bo‘lmasligi, tashqi olam bilan faol aloqada bo‘lishi lozim. Yoshlarning shaxs sifatida shakllanish va ijtimoiylashuv davri asosan maktab tizimida yuz beradi. Inson va jamiyatatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin avlodlarga o‘tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma’noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi.

Demak milliy tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tuzum va uning yetakchi g‘oyalari, hatto adabiyot, san’at, kino, radio,TV, OAV va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shunungdek, milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi. Tor ma’noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma’naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bizga ma’lumki, har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘la oladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki uning o‘sishi har qanday jamiayat va davlatda hal qiluvchi ahamiayatga ega. Buning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z ajdodalaridan ham yuqoriroq natijalarga erishsishi lozim bo‘ladi. Ammo, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqga zid bo‘lgan harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatlari, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash sharti jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
3. Quronov M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.
4. Quronov M**.** Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.